

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53402-3.20

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

"8" iyul 2003 y.

**MENEJMENT SOTSIOLOGIYASI VA
PSIXOLOGIYASI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340200 - "Menejment"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Sobirjonova D.,
o'q. Jumaev O.

Taqrizchilar: dots. Rafiqov E.,
dots. To'laganova Sh.

Ushbu o'quv dasturda iqtisodiy yo'nalishlardagi oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish jarayonida, malakali rahbar xodimlarga bo'lgan ehtiyoj ko'paymoqda. Shu munosabat bilan oliy o'quv yurtlarida menejment yo'nalishlari tashkil etilmoqda. "Menejment sotsiologiyasi va psixologiyasi" fani esa menejerlarni boshqarish jarayonlarini tashkil qilish hamda uni olib borishni nazariy jihatdan o'rgatadi. Tuzilgan ushbu namunaviy dastur bu fan bo'yicha nazariya asoslarini barcha bilimlarning o'z ichiga oladi.

Данное учебная программа предназначено для студентов экономических вузов.

Специалисты работающие на производстве и предприятиях в экономической сфере должны хорошо ориентироваться в вопросах социологии и психологии менеджмента.

В настоящее время в условиях рыночной экономики социологии и психологии менеджмента уделяется большое значение во всех сферах деятельности. В темах данного курса рассмотрены теоретические вопросы, касающиеся социологии и психологии менеджмента.

Данный курс лекции, предусмотренный программой поможет студентам освоить основные теоретические аспекты необходимые для решения проблем связанных с социологии и психологии менеджментом.

The given manual is intended for the students of economic high schools.

The experts working on manufacture and enterprises in economic sphere should well be guided in questions sociology and psychology of management.

Now in conditions of market economy the large value in all spheres of activity is given to sociology and psychology of management. In subjects of the given rate the theoretical questions concerning sociology and psychology of management are considered.

The given rate of lectures stipulated by the program will help the students to master the basic theoretical aspects necessary for the decision of problems connected with sociology and psychology of management.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Jamiyatimizni yuksak darajada rivojlanishi hamda fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida korxonalar va tashkilot rahbarlarini mas'uliyatini yanada oshirmoqda. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida sof raqobatni yuzaga kelishi korxonalar va tashkilotlarning mavjud resurslaridan samarali foydalanish evaziga mehnat unumdorligini, hamda ularni samaradorlik darajasini ortishiga sabab bo'lmoqda. Korxonalar va tashkilotlardagi resurslar tarkibida inson resurslari muhim ahamiyat kasb etadi. Inson resurslarini boshqarish esa juda murakkab jarayondir. Inson resurslarini boshqarish uchun boshqaruvchi rahbar xodimlar etarli bilim va malakaga ega bo'lishlari lozim. Bu bilimlarni esa Oliy o'quv yurtlarida talabalar bosqichma-bosqich egallashmoqda. Talabalarni nazariy jihatdan boshqaruv jarayonini, korxonani tashkiliy iqtisodiy omillarini, resurslar samaradorligi va ularni boshqarishni puxta o'rganishi kelajakda davlatni malakali kadrlar boshqarishiga imkon yaratadi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi

"Menejment sotsiologiyasi va psixologiyasi" fani bakalavr yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan.

Bu fan boshqarish sotsiologiyasi va psixologiyasi xaqida tushuncha berib, ishlab chiqarish kollektivi boshqarishning ob'ekti va sub'ekti sifatida, rahbar mehnat jamoasining asosiy boshqaruvchisi, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat jamoalarining boshqarishda, mehnatkashlarning o'z-o'zini boshqarishdagi ijtimoiy-ruhiy munosabatlari, hozirgi davrda mehnatni rag'batlantirishning ruhiy jabhalari, mehnat jamoasida ijtimoiy-ruhiy iqlimni boshqarish, yangi xo'jalik sharoitida ishlab chiqarish tarbiyasining ruhiy jabhalari, boshqaruv tizimida ijtimoiy bashorat etish va rejalashtirish, rahbar mehnatining psixologiyasi, boshqaruvda ijtimoiy qarorlarni ishlash va tatbiq etish usullari, ijtimoiy boshqaruv jarayonini axborot bilan ta'minlash, ijtimoiy va ruhiy boshqaruvda ijtimoiy tadqiqotlarning roli, rivojlangan mamlakatlardagi korxonalar ijtimoiy boshqaruvning nazariyasi va amaliyotini o'rgatadi.

Bu fan "Iqtisodiy nazariya", "Axborot texnologiyasi" "Menejment", "Sotsiologiya", "Psixologiya", "Falsafa", "Madaniyatshunoslik" va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq.

Mazkur fanni o'rgatish vazifalari

Talabaga faoliyatni tashkil qilish va bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqarish sotsiologiyasi va psixologiyasi asoslarini o'rgatish.

Fan o'qitish bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Talabalar fanni o'rganish jarayonida har bir o'tilgan mavzular bo'yicha belgilangan miqdordagi reyting ballarini to'plashlari, mavzulardagi tayanch so'z va iboralarni chuqurroq o'zlashtirishlari, tuzilgan test savollari asosida o'z bilimlarini sinab borishlari lozim. O'qitish jarayonini joriy, oraliq nazorat (baholash orqali boshqarilib, o'quv kursi orqali yakuniy nazorat bilan yakunlanadi.

Talabalar o'zlari mustaqil holda referatlar, chizmalar va jadvallar tayyorlab kelishlari va shunga yarasha oraliq, joriy, yakuniy baholashda reyting ballarini to'plashlari kerak.

Seminar mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar miqdoriga minimal talablar

Seminar mashg'ulot mavzulari namunaviy dastur asosida belgilab olinib, har bir mavzuga kiritilgan savollar va ularga tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati bilan birga uslubiy qo'llanma shaklida ko'paytiriladi.

Seminar rejasidagi savollar dastur asosida tuzilib, ular ma'ruza savollarini mazmunan va shaklan takrorlamaydi.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi

Oliy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 108, shu jumladan 36-ma'ruza, 36-amaliy mashg'ulot, 36-mustaqil ta'lim soatlari.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash reyting tizimi asosida amalga oshiriladi. O'quv rejasida fanga ajratilgan soat yuklamasidan kelib chiqib, aniqlanadigan reyting ballari (72) nazoratning alohida turlariga quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- joriy baholashga seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soat yuklamasining 70 foizi (25.2 ball);
- oraliq baholashga ma'ruza darslariga ajratilgan soat yuklamasining 70 foizi (25,2 ball);
- yakuniy baholashga o'quv soatlar yuklamasining 30 foizi (21,6 ball).

Joriy baholash uchun ajratiladigan reyting ballari talabalarning seminar darsidagi faolligi, ilmiy referat tayyorlanganligi va boshqa rejalashtirilgan ishlarni (mustaqil ish bajarish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash va h.k) bajarganligi uchun qo'yiladi.

Oraliq baholashda talabalarning ma'ruza darslaridagi faolligi hisobga olinadi hamda ikki marta oraliq nazorat (yozma ish, test yoki nazoratning boshqa turi) o'tkazilib, ularga ham tegishli ball ajratiladi.

Yakuniy baholash ballari talabalarning tayanch so'z va iboralar bo'yicha bajargan yakuniy yozma ishi uchun qo'yiladi.

Kompyuter, axborot va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

"Menejment sotsiologiyasi va psixologiyasi" kursini o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlariquyidagilardan iborat:

- fanni mazmunini ko'rsatuvchi ko'rgazmali albomlardan foydalanish;
- ma'ruza matnidagi shakliy va raqamli ma'lumotlarni kafedra oldindan tayyorlab, talabalarga etkazish. Bu o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi;
- test savollarini tuzish;
- "tayanch" iboralar ishlab chiqib, ularning talabalar tomonidan mukammal o'zlashtirishini ta'minlash;
- ayrim mavzular bo'yicha ma'ruzalarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqaradigan yuqori tashkilotlarning mas'ul xodimlari tomonidan o'tishini ta'minlash;
- masofaviy o'qitishni tashkil etish bo'yicha kompyuterda bajariladigan dasturlardan foydalanish;
- xorijiy universitetlar professorlari tomonidan yozilgan ayrim ma'ruzalarni o'qitilib, teleekran orqali namoyish etishga erishish va boshqalar.

INTERNET tarmoqlarida mavjud bo'lgan fanga taalluqli saytlar ro'yxati:

1. <http://www.cer.uz>
2. <http://www.referat.ru>
3. <http://www.plekhanov.ru>
4. <http://www.litera.ru>

Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

"Menejment sotsiologiyasi va psixologiyasi" fani kunduzgi bo'lim menejment yo'nalishining talabalarga o'qitiladi, oraliq va joriy o'quv jarayonini oxirida esa yakuniy baholash bilan tugallanadi.

Talabalar ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlarda o'z bilimlarini chuqurlashtiradilar. Ular olgan bilim va ko'nikmalar yuqori kurslarda o'tiladigan boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun ham asos bo'ladi va bu bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi.

Fanni o'rgatishda quyidagilarga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va ma'ruzalarida iqtisodiy munosabatlar, jumladan, bozor faoliyatiga oid fikrlar, ko'rsatmalarni tegishli mavzularda ishlatish;
- Talabalarni bozor faoliyatiga taalluqli yangi qo'llanmalar, darsliklar bilan darslarda tanishtirib berish;
- Har bir mavzu bo'yicha jadvallar va tizmalar tayyorlab, ulardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish.

2. FAN DASTURI

"Menejment sotsiologiyasi va psixologiyasi" fanining predmeti, mazmuni va vazifalari

Kursning predmeti va ob'ekti. Mehnat jamoasini boshqarishda sotsiologiya va psixologiya ilmining o'ziga xos xususiyati. Boshqaruv jarayonida sotsiologiya va psixologiya ilmining fan sifatida o'qitilishi. Sotsial boshqaruvning ilmiyligi.

Sotsial boshqaruvning yagona tizimi. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Sotsiologik va psixologik boshqarishni o'rganish yo'llari.

Ishlab chiqarish jamoasi boshqarishning ob'ekti va sub'ekti sifatida

Ishlab chiqarish jamoasi haqida tushuncha. Jamoa va guruhlar. Ishlab chiqarish jamoasining tashkil topishi. Mehnat jamoasining funktsiyasi. Ijtimoiy boshqaruvda rasmiy va norasmiy strukturalar orasidagi bog'liqlik. Boshlang'ich ishlab chiqarish jamoasining ijtimoiy-ruhiy iqlimi. Mehnat faoliyati. Ishlab chiqarishni tashkil etishda va takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribasi.

Shaxs boshqaruv ob'ekti va sub'ekti sifatida

Shaxs tushunchasi. Boshqaruv munosabatlari tizimida shaxsning ijtimoiy roli va o'рни. Shaxsning professional va funktsional sifatining ma'lum tartib va qoidalarini belgilash.

Shaxsning ishlab chiqarishdagi ijtimoiy roli va javobgarligi. Shaxsning shakllanishida ijtimoiy omillarning ta'siri. Ishlab chiqarish kollektivida shaxsning da'vogarlik darajasi. Ishlab chiqarish kollektivida shaxs intizomi ijtimoiy me'yor regulyatori ekanligi.

Rahbar – mehnat jamoasining asosiy boshqaruvchisi

Rahbarning ijtimoiy boshqaruvdagi ahamiyati. Boshlang'ich ishlab chiqarish jamoasida rahbarning umumiy funksiyalari. Rahbar javobgarligi. Rahbarning obro'si va manfaatlari. Rahbar bilan bo'ysunuvchi o'rtasidagi munosabat shakli. Jamoa mehnatini tashkil qilish.

Guruhlarining bir-birlari bilan kelishib ishlay olishlari. Yosh kadrlarni tayyorlashdagi xorijiy tajribalar. Guruhning ishlab chiqarishdagi o'z mehnati haqida.

Rahbar sifati strukturalarining xususiyati

Rahbar sifatining umumiy strukturasi. Ishlab chiqarishda rahbarning sifat strukturasi. Brigadir, master, tsex boshlig'i. Direktor rahbarlarning sifat strukturalarini xususiyati. Rahbarning mutaxassislikka tayyorgarligi. Rahbarning tashkilotchilik xususiyati.

Rahbarga tashkilotchilik sifatida psixologik talablar. Rahbarga qaror qabul qilishdagi psixologik talablar. Direktiv axborotlarda rahbarga bo'lgan psixologik talablar.

Rahbarning intellektual sifatlari, rahbarning xodimlar bilan munosabati.

Jamoani o'z-o'zini boshqarishdagi ijtimoiy-ruhiy munosabatlar

O'z-o'zini boshqarishning shakl va munosabatlari. Mehnat kollektivlarida o'z-o'zini boshqarishning mazmuni va vazifasi. Mehnat sotsiologiyasi.

Ishlab chiqarishda rahbarlik xissiyotining tashkil bo'lishi. Mehnat jamoalarini boshqarishda demokratizatsiyaning hozirgi yo'li. Mehnat jamoalarida munosabatlarning ijtimoiy-ruhiy jabhalari. Jamiyat, jamoa va shaxsiy munosabatlar birligi. O'z-o'zini boshqarishda jamoa a'zolarining ishtiroki. Mehnat jamoasi a'zolarining faolligini oshirish yo'llari. Ishlab chiqarish va texnologik intizomni mustahkamlash.

Ishlab chiqarishda mehnatni rag'batlantirishning ruhiy jabhalari

Mehnatni rag'batlantirishni tashkil qilishni takomillashtirish yo'llari va mazmuni. Mehnatga ongli yondoshish munosabatlari mexanizmi. Mehnatni rag'batlantirishni tashkil qilishda ruhiy talablar. Rag'batlantirish tizimida samaradorlikni oshirishning ba'zi bir yo'llari.

Mehnat rag'batlantirishda ruhiy-didaktik tamoyillar.

Mehnat taqsimotida ijtimoiy adolat tamoyilining roli.

Rag'batlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyasi va undan foydalanish yo'llari. Shaxsiy va jamoa ishlab chiqarish mehnatini rag'batlantirishda ish haqidan foydalanish. Mehnat jamoalarini va alohida ishchini rag'batlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi.

Jamoaning ijtimoiy-ruhiy iqlimini boshqarish

Ma'naviy-ruhiy omillar. Ma'naviy-ruhiy iqlimni yaratish. Har xil mehnat sharoitida ma'naviy-ruhiy iqlimni boshqarish. Ishbilarmonlikda muomala madaniyati va jamoaning ma'naviy-ruhiy iqlimni boshqarishning roli. Mojaro tushunchasi, mojaroning turlari. Mojaroning ruhiy tahlil qilish, mojaroning o'sish xususiyati va uni hal qilish. Jamoada nizo va stressni oldini olishda ruhiy-pedagogik usullar. Korxonada ijtimoiy-ruhiy iqlimni boshqarishda xorijiy tajribalar.

Yangi xo'jalik sharoitida ishlab chiqarish tarbiyasining ruhiy jabhalari

Ishlab chiqarishda mehnat jamoalarini tarbiyalashning mohiyati, xususiyati. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Ishlab chiqarish tarbiyasining shakl va usullari. Tarbiya tamoyillari. Tashkiliy xo'jalik faoliyati va tarbiyaning birligi. Jamoa ruhiyati mehnatkashlarning ijtimoiy-ruhiy muhitga o'rganishi. Mehnatni tashkil qilish va texnik usul. Tarbiya ta'sirining ruhiy xususiyatlari. Odamlar psixologiyasida demokratiya va oshkoralik. Mehnat jamoasiga ta'sir qilish shakllari. O'xshashlik va ta'sir o'tkazish. Mehnat, so'z, tashqi ko'rinish orqali ta'sir ko'rsatish. Mehnat kollektivlariga mehnat ta'sirini o'tkazishda xorijiy mamlakatlar tajribasi.

Boshqaruvda ijtimoiy bashorat etish va rejalashtirish

Ijtimoiy bashorat etishning mohiyati. Ijtimoiy bashorat etish-ilmiy bilish usullaridir. Ijtimoiy bashorat etish funksiyalari. Ijtimoiy bashorat etish turlari. Ijtimoiy-prognozlash usulining ekspertiza usuli. Ijtimoiy bashorat etishda modellashtirish usuli.

Ijtimoiy rejalashtirishning metodologik aspekti.

Boshqaruvda ijtimoiy rejalashtirishning tushunchasi. Ijtimoiy rejalashtirishning boshqaruvdagi o'rni. Ijtimoiy rejalashtirish mexanizmida motivning roli. Mehnatga qarab taqsimlashda ijtimoiy rejalashtirish usuli. Ijtimoiy rejalashtirishning shakl va usullari.

Ijtimoiy rejalashtirishda me'yoriy usul. Xorijiy ishlab chiqarishda ijtimoiy bashorat etish va rejalashtirish.

Rahbar mehnatining psixologiyasi

Rahbar mehnatining psixologiyasi va rahbar mehnatiga qo'yilgan ruhiy talablar. Yuqori ma'naviy-ruhiy holatning sotsiallashtirishni muhim xususiyatlari. Boshqaruv muomalasi. Rahbarning xizmatidagi intizomiga ruhiy tavsifi. Boshqaruv qarori va uni axborot bilan ta'minlash. Rahbar mehnati psixologiyasi haqida xorijiy mamlakatlar tajribasi.

Boshqaruvda ijtimoiy qarorlar qabul qilish usullari

Ijtimoiy boshqaruvda qarorlarning ahamiyati. Ijtimoiy boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni va uni tatbiq etish. Ijtimoiy boshqaruv shakllari va usullari. Ijtimoiy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda boshqaruv shakllari, usullari va ularni mazmuni. Boshqaruv qarorlarini tayyorlash texnologiyasi, uni qabul qilish va bajarishni tashkil qilish. Noaniqlik va har xil sharoitda ijtimoiy qarorlarni qabul qilish.

Ijtimoiy boshqaruv qarorlarini qabul qilish va tatbiq qilishda ruhiy xususiyatlari davrlari.

Ijtimoiy boshqaruvni axborot bilan ta'minlash

Ijtimoiy boshqaruvda axborotning mohiyati va mazmuni. Axborot va boshqaruv jarayonining o'zaro bog'liqligi. Ijtimoiy boshqaruvda axborotning roli. Ijtimoiy axborot turlari. Ijtimoiy boshqaruvni axborot bilan ta'minlash. Ijtimoiy boshqaruv axborotining belgilari. Ijtimoiy boshqaruv axborotiga bo'lgan talablar. Ijtimoiy boshqaruv va axborot. Axborotlarning o'zaro aloqasi va ish hujjatlari.

Ijtimoiy boshqaruv jarayonida rivojlangan korxonani axborot bilan ta'minlash.

Jamoani boshqarishda sotsiologik tadqiqotlarning o'rni

Ijtimoiy boshqaruv tizimida sotsiologik tadqiqotlarning ahamiyati. Psixologik boshqaruvda sotsiologik tadqiqotlar. Jamoani boshqarishda ijtimoiy-ruhiy boshqaruvni takomillashtirish va uning jamoa mehnatining natijasiga ta'siri.

Hozirgi sharoitdagi boshqaruvda sotsiometriya va uning roli. Ijtimoiy-ruhiy boshqaruvning sotsiologik tadqiqotlarida xorijiy mamlakatlar tajribasi.

Jamoa ijtimoiy boshqaruvining nazariyasi va amaliyotining chet el tajribasi

Xorijiy ishlab chiqarish boshqaruvining xususiyatlari. Ishlab chiqarish boshqaruvining nazariyasi va amaliyotining rivojlanish davrlari. Industrial boshqaruv nazariyasi. Ilmiy boshqaruv maktabi. Boshqaruvni tashkil etishda byurokratik model.

Boshqaruvda inson omili faktori nazariyasi. Ishlab chiqarish demokratiyasi doktrinasi. Hozirgi zamon jamiyatini rivojlanish g'oyalari va ishlab chiqarish boshqaruvini "Sotsiotexnik" tizimi kontseptsiyasi - yapon ijtimoiy boshqaruv tajribasidir.

3. SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZUSI

Ishlab chiqarish jamoasini boshqarishning ob'ekti va sub'ekti sifatida

Ishlab chiqarish jamoasi, jamoa va guruhdagi o'zaro munosabat tushunchasi. Ishlab chiqarish jamoasining tashkil topishi. Mehnat jamoasining funktsiyasi. Ijtimoiy boshqaruvda rasmiy va norasmiy strukturalar orasidagi bog'liqlik. Boshlang'ich ishlab

chiqarish jamoasining ijtimoiy-ruhiy iqlimi. Mehnat jamoasi faoliyati boisi. Xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish.

Shaxs boshqaruv ob'ekti va sub'ekti sifatida

Shaxs. Boshqaruv munosabatlari tizimida shaxsning ijtimoiy ahamiyati. Shaxsning o'ziga xos tartib va qoidalarini belgilash. Shaxsning ijtimoiy roli va javobgarligi. Shaxsning shakllanishida ijtimoiy omillarni ta'siri. Jamoada shaxsning da'vogarlik darajasi hamda shaxs intizomini ruhiy me'yor regulyatori. Ishlab chiqarish jamoasini boshqarishda ijtimoiy-ruhiy asosining roli. Shaxs psixologiyasini tekshirishdagi tahlil va uning rivojlanishi.

Rahbar – mehnat jamoasining asosiy boshqaruvchisi

Rahbar ijtimoiy boshqaruvda bosh etakchi. Jamoada rahbarning umumiy funksiyalari. Rahbar javobgarligi va mas'uliyati. Rahbarning mavqei. Rahbarning rahbarlik yo'li, rahbar bilan bo'ysunuvchi o'rtasidagi munosabat. Jamoa mehnatini tashkil qilish. Guruhlarning bir-birlari bilan kelishib ishlay olishlari, yosh kadrlarni tayyorlashdagi xorijiy tajriba va ishlab chiqarishdagi mehnati haqida.

Rahbar sifati strukturalarining xususiyati

Rahbar sifatining umumiy xususiyati. Ishlab chiqarishda rahbarning sifat tizimi. Rahbarning ish darajasini tayyorgarligi. Rahbarning tashkilotchilik xususiyati. Rahbarga tashkilotchiligiga va qaror qabul qilishdagi psixologik talablar. Direktiv axborotlarda rahbarga bo'lgan psixologik talablar. Rahbarning intellektual sifatlari, rahbarning xodimlar bilan munosabati.

Jamoaning o'z-o'zini boshqarishdagi ijtimoiy-ruhiy munosabatlar

O'z-o'zini boshqarish. Uning shakl va munosabatlari. Mehnat jamoalarida o'z-o'zini boshqarishning mohiyati. Ishlab chiqarishda rahbarlik hissiyotining vujudga kelishi. Mehnat jamoalarini boshqarishda demokratizatsiyaning rivojlanishi. Mehnat jamoalarida munosabatning ijtimoiy-ruhiy holati. Jamiyatda jamoa va shaxsiy munosabatlarni o'zaro bog'liqligi. O'z-o'zini boshqarishda a'zolarining ishtiroki. Mehnat jamoalari a'zolarining faolligini oshirish yo'llari. Tashkiliy va texnologik intizomni mustahkamlash.

Ishlab chiqarishda mehnatni rag'batlantirishning ruhiy jabhalari

Mehnatni rag'batlantirishni tashkil qilish va takomillashtirish. Mehnatni rag'batlantirishni tashkil qilishni ruhiy talablari. Rag'batlantirish tizimida samaradorlikni oshirish. Mehnatni rag'batlantirishning ruhiy-didaktik tamoyillari. Mehnat taqsimotida ijtimoiy adolat tamoyilining roli. Rag'batlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyasi.

Jamoani boshqarishda ish haqidan foydalanish. Jamoa va shaxsni boshqarishni rag'batlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi.

Jamoda ijtimoiy-ruhiy iqlimni boshqarish

Ma'naviy-ruhiy omillar. Jamoa mehnati. Ma'naviy-ruhiy iqlim. Ma'naviy-ruhiy iqlimni boshqarish. Tadbirkorlikda muomala madaniyati. Jamoaning ma'naviy-ruhiy iqlimni boshqarish. Nizo tushunchasi, nizo turlari. Mojaroning ruhiy tahlil qilish, mojaroning o'sish xususiyati va uni hal qilish. Jamoda nizolarning oldini olishda ruhiy-pedagogik usullar. Korxonada ijtimoiy-ruhiy iqlimni boshqarishda xorijiy tajribalar.

Yangi xo'jalik sharoitida ishlab chiqarish jamoa tarbiyasining ruhiy jabhalari

Mehnat jamoalarini tarbiyalash. Uning mohiyati va xususiyati. Tarbiyaning ahamiyati. Ishlab chiqarish tarbiyasining o'ziga xos xususiyati. Tarbiyalash tamoyillari. Tashkiliy xo'jalik faoliyati. Jamoa psixologiyasi. Xodimlarning ijtimoiy-ruhiy muhitga moslashishi. Mehnatni tashkil qilish va texnik usul. Tarbiya ta'sirining ruhiy xususiyatlari. Shaxs psixologiyasida demokratiya va oshkoralik.

Boshqaruv ijtimoiy bashorat etish va rejalashtirish

Ijtimoiy bashoratlashni ishlab chiqarishdagi ahamiyati. Ijtimoiy bashoratlash funksiyalari va ijtimoiy-bashoratlash metodini ekspertiza usuli. Ijtimoiy bashoratlashda modellashtirish usuli. Boshqaruvda ijtimoiy rejalashtirish. Ijtimoiy rejalashtirishning boshqaruvdagi ahamiyati. Ijtimoiy rejalashtirish mexanizmida motivlashtirish. Mehnatga qarab taqsimlash ijtimoiy rejalashtirishning usuli to'g'risida. Ijtimoiy rejalashtirishning shakl va usullari.

Rahbarning mehnatining psixologiyasi

Rahbar mehnatining psixologiyasi va uning mehnatiga qo'yiladigan ruhiy talablar. Yuqori ma'naviy-ruhiy holatning ijtimoiy muhim xususiyatlari. Boshqaruv muomalasi va madaniyati. Rahbarning xizmatdagi intizomiga ruhiy tavsif. Boshqaruv qarori va uni axborot bilan ta'minlash. Rahbar mehnati psixologiyasi haqida xorijiy mamlakatlar tajribasi.

Boshqaruvda ijtimoiy qarorlarni qabul qilish usullari

Ijtimoiy boshqaruvda qarorlarning mohiyati. Ijtimoiy boshqaruv qarorlarini ishlash jarayoni va uni tadbiiq qilish. Ijtimoiy boshqaruv shakllari va usullarini ahamiyati. Ijtimoiy boshqaruv qarorlarini ishlashda boshqaruv shakllari, usullari, mazmuni. Boshqaruv qarorlarini tayyorlash uni qabul qilish va bajarishni tashkil qilish. Noaniqlik va har xil sharoitda ijtimoiy qarorlarni qabul qilish.

Ijtimoiy boshqaruvni axborot bilan ta'minlash

Ijtimoiy boshqaruv axborotining ahamiyati. Axborot va boshqaruv. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy boshqaruv axborotining roli. Ijtimoiy axborot turlari. Ijtimoiy boshqaruvni axborot bilan ta'minlash va uning belgilari. Ijtimoiy boshqaruv axborotiga bo'lgan talablar. Ijtimoiy boshqaruv va axborot. Axborotlar aloqasi va ish hujjatlari.

Jamoani boshqaruvida sotsial tadqiqotlarning roli

Ijtimoiy boshqaruv tizimida sotsiologik tadqiqotlar. Psixologik boshqaruv. Boshqaruvda ijtimoiy-psixologik boshqaruvni takomillashtirish va uning mehnat jamoalarini mehnat natijasiga ta'siri. Hozirgi sharoitdagi boshqaruvda sotsiometriya. Sotsial psixologik boshqaruvning sotsiologik tadqiqotlarida xorijiy mamlakatlar tajribasi.

Jamoa ijtimoiy boshqaruvining nazariyasi va amaliyotining chet el tajribasi

Xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarishni boshqaruv. Boshqaruvining nazariyasi va amaliyotining rivojlanish davrlari. Industrial boshqaruv nazariyasi. Ilmiy boshqaruv maktabi. Boshqaruvni tashkil etishda byurokratik model. Boshqarishda inson omili nazariyasi. Ishlab chiqarish demokratiyasi doktrinasi. Jamiyatni rivojlanish g'oyalari va ishlab chiqarish boshqaruv "Sotsiotexnik" tizimi kontseptsiyasi - yapon ijtimoiy boshqaruv tajribasidir.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RZGAZMA NAMOIYISH MATERIALLARI

"Menejment sotsiologiyasi va psixologiyasi" fani bo'yicha amaliy o'quv materiallari

- Shaxs boshqaruv ob'ekti va sub'ekti sifatida.
- Rahbar sifati strukturlarining xususiyati.
- Ishlab chiqarishda mehnatni rag'batlantirish jabhalari.
- Rahbar mehnati psixologiyasi.
- Ijtimoiy boshqaruvni axborot bilan ta'minlash.
- Boshqaruvda ijtimoiy prognozlash.

Slaydlar ro'yxati

- Menejment sotsiologiyasi va psixologiyasi mazmuni va vazifalari.
- Rahbar jamoaning asosiy boshqaruvchisi.
- Jamoa ijtimoiy-ruhiy iqlimi.
- Boshqaruvda ijtimoiy qarorlar qabul qilish.
- Ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish.

Axborot manbalari ro'yxati

- Yilliy statistik ma'lumotlar.
- Korxonalar (firma) hisobotlari.
- Tadbirkorlik uyushmasi axborotlari.
- Birja axborotlari.
- Televideniye, radio yangiliklari.
- Aktsiya kurslari jadvallari.
- Voqealar sharhi.
- O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi.

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

"Menejment sotsiologiyasi va psixologiyasi" fanidan nazorat qilish turlari quyidagicha

1. Fan uchun belgilangan maksimal ball - 72;
2. Fan uchun saralash bali - 39,6. Shu jumladan:
 - joriy baholash - 25,2 ball;
 - oraliq baholash - 25,2 ball;
 - yakuniy baholash - 21,6 ball.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga hos yo'li. - T.: O'zbekiston, 1993.
2. Karimov I. A. O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - T.: O'zbekiston, 1995.
3. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. - T.: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. 3. - T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. - T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T. 5. - T.: O'zbekiston, 1996.
7. Karimov I. A. Zamonaviy Kadrlar-taraqqiyotimizning muhim omilidir. T. 6. - T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. - T.: O'zbekiston, 1999.
9. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1997.

10. Valovoy D.V. Istoriya menedjmenta. - M.: "Infra-M", 1997.
11. Galdentreyter Yu.B.. Vvedenie v obshchuyu psixologiyu. - M.,1995.
12. Zaynutdinov Sh.N, Murakaev I.U. Osnovi menedjmenta. - T.: O'qituvchi, 1996.
13. Meskon A. Osnovi menedjmenta. - M., 1995.
14. Prakticheskaya psixologiya dlya menedjеров. 1996.
15. Radugin A.A. va boshq. Sotsiologiya kursi. – M., 1995.
16. Reylen O.R. Analiticheskaya osnova prinyatiya upravlencheskix resheniy. - M., 1994. Saifnazarov I., Murakaev I.. Menejment asoslari. - T., 1996.
17. Savchenko I.M., Averin Yu.P.. Osnovi teorii sotsialnogo upravleniya. - M., 1993.
18. Saifnazarov I., Murakaev I., Menejment asoslari. – T., 1996.
19. Toshniyozov M. Korxonalarda boshqaruv faoliyati asoslari. - T.: 1995.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Vixanskiy O.S., Naumov A. Menedjment. - M.: Visshaya shkola. 1994.
2. Gerchikova. Menedjment. - M., 1998.
3. Isinova I. Yaponskie metodi upravleniya kollektivom. - M., 1994.
4. Karnegi Deyl. Kak zavoevat druzey i okazivat vliyanie na lyudey. - M.: Progress. 1990.
5. Komozin N.N., Kravchenko A.I. Poulyarnaya psixologiya. - M., 1991.
6. Omarov I.M. Rukovoditel v stile upravleniya. - M., 1994.
7. Platonov Yu.P. Psixologiya kollektivnoy deyatelnosti. - L., 1993.
8. Savenitskiy A.O. Sotsialnaya psixologiya upravleniya. - L., 1993.
9. Filippov A.V. i dr. Proizvodstvennaya sotsiologiya, psixologiya i pedagogika. - M., 1994.